

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI NUKUS FILIALI XALQ CHOLG'ULARINING IJODIY FAOLIYATI

O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali "umumiy kasbiy va social-gumanitar fanlar" kafedrası "Musiqashunoslik" mutaxassisligi 2- kurs talabasi

Madrimova To'xtajon

Ilmiy rahbar: Kamalova Gulmaryam Maksedullaevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zaretdinov Qurbonbay – o'zining ajoyib musiqiy mahorati, qisqacha umri va Uning yorqin asarlaridan biri Dayi qiz asari D Allanazarov so'ziga bastalagan salist ham fortepiyano uchun yozilgan asar mazmun va melodik va gormonik jihatdan tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: Dayi qiz melodiya, qisim, avj, taqt, matif, diyafazon, jumla, qator, ohang, mazmun.

Аннотация: В данной статье анализируются с точки зрения содержания, мелодического и гормонального аспектов Заретдинов Гурбанбай - его удивительные музыкальные способности, его недолгая жизнь, а также одно из его ярких произведений «Дайы кыз», написанное для фортепиано виолончелистом Д. Алланазаровым. .

Ключевые слова: мелодия Дайи киз, партия, кульминация, трон, матиф, диафазон, предложение, строка, тон, содержание.

Abstract: In this article, Zaretdinov Qurbanbay - his amazing musical skills, his short life, and one of his bright works, Dayi kiz, written for piano by D. Allanazarov, a cellist, are analyzed in terms of content, melodic and hormonal aspects.


Key words: Dayi kiz melody, part, climax, throne, matif, diaphason, sentence, line, tone, content.

Zaretdinov Qurbonbay – o'zining ajoyib musiqiy mahorati, fidoyiligi va milliy san'atga qo'shgan ulkan hissasi bilan tanilgan san'atkor. U 1951-yili 25-fevralda Qoraqalpog'istonning Kegeyli viloyatida dunyoga kelgan va o'zining musiqaga bo'lgan cheksiz muhabbati bilan butun hayotini san'atga bag'ishladi 1975 yilda Toshkent Davlat Konservatoriyasining dirijyorlik va xor fakultetini tamomlagan Zaretdinov Qurbonbay, musiqa sohasida chuqur bilimga ega bo'lib, o'zining san'atini yanada rivojlantirish uchun harakat qildi. Uning san'atdagi yuksalishi va muvaffaqiyatlari uning fidoyiligi va mehnatsevarligining natijasi edi. 1975-1977 yillarda Nukusdagi musiqa maktabida o'qituvchilik qilgan Zaretdinov, yosh avlodni musiqaga o'rgatishda, ularga nafaqat musiqa nazariyasini, balki musiqaning chuqur ma'nosini ham o'rgatdi. Ularning qalbida san'atga bo'lgan muhabbatni uyg'otib, o'zining bilim va tajribasini ularga meros qilib qoldirdi. 1981-1987 yillarda Berdaq


nomidagi Davlat filarmoniyasining simfonik orkestri dirijyori sifatida ishlagan Zaretdinov Qurbonbay, orkestrning ijrosini yangi cho‘qqilarga olib chiqdi. Uning rahbarligida orkestr o‘zining eng yaxshi asarlarini ijro etdi va musiqaning barcha janrlarini birlashtirgan yuksak san‘at namoyishi yaratildi. U orkestrga yangi ruh bag‘ishlab, uning ijrosini yanada boyitdi. 1989-1991 yillarda Berdaq nomidagi teatrda bosh xormeyster va muzalar bosh dirijyori sifatida faoliyat ko‘rsatgan Zaretdinov, teatr va musiqa san‘ati o‘rtasidagi uyg‘unlikni yanada chuqurlashtirdi. Uning dirijyorligi ostida teatr sahnasida musiqaning ahamiyati yanada oshdi, har bir spektaklni yangi musiqiy ranglar bilan to‘ldirib, tomoshabinlarga unutilmas taassurotlar qoldirdi. 1992 yildan boshlab, Zaretdinov Qurbonbay Qoraqalpog‘iston Bastakorlar uyushmasi raisi sifatida faoliyat olib bordi. Bu davrda u milliy musiqa maktabini rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Bastakorlar uyushmasi raisi sifatida u yangi iste‘dodlarni kashf etish va ularni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratdi. 2008 yildan boshlab, Qoraqalpoq universiteti musiqashunoslik kafedrasining mudiri sifatida o‘zining bilim va tajribasini yosh avlodga o‘rgatishda davom etdi. Uning ta‘limidagi asosiy maqsad – nafaqat musiqiy bilimlarni o‘rgatish, balki yoshlarni san‘atga bo‘lgan muhabbat va hurmat bilan tarbiyalash edi. Zaretdinov Qurbonbayning san‘atga qo‘shgan ulkan hissalarini yuksak e‘tirof etilgan. U Berdaq nomidagi Davlat mukofoti laureati bo‘lib, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist unvoniga sazovor bo‘lgan. 1991 yilda unga bu unvonlar topshirilishi uning musiqaga bo‘lgan sadoqatini va san‘at sohasidagi muvaffaqiyatlarini tan olishdir. Zaretdinov Qurbonbayning musiqasi – bu faqat eshitish uchun emas, balki qalbni tinglash uchun yaratilgan. Uning ijodi, uning yuragidan chiqib, tomoshabinlarning ruhiga singib, har bir notada, har bir akkordda o‘zining chuqur ma‘nosini topadi. Uning asarlari kabi, uning hayoti ham musiqaning cheksiz olamida yangi va yangi tonlarni, ranglarni ochib beradi. Uning yorqin asarlaridan biri Dayi qiz asari D Allanazarov so‘ziga musiqasi bastalagan salist ham fortepiyano uchun yozilgan asar Allegretto tempida ijro etiladi, 2/4 o‘lchovda bu esa uning jonli va quvnoq xarakterini aks ettiradi. Notalarning joylashuvidan kelib chiqsak, u qo‘shiq shaklida yozilgan bo‘lib, asosiy kublet va qaytaruvlardan iborat. Melodiya o‘zining yumshoq yuqoriga ko‘tarilishi va pastga tushishlari bilan o‘zbek yoki qoraqalpoq xalq musiqasining an‘anaviy uslubiga mos tushadi. Birinchi kuy qismlari keng diapazonga ega emas, ammo ohanglarda muntazam takroriylik bor, bu esa esda qoladigan va oson kuylanadigan. Garmoniyasida Kuyning fortepiano qismi o‘rta darajada murakkab bo‘lib, asosiy melodiya bilan yaxshi uyg‘unlashadi. U diatonik asosda yozilgan va minor tonallikdan foydalanilgan Ritmik jihatlar. Nimchorak o‘n oltitalik o‘ttiz ikkitalik no‘talardan keng foydalanilgan Fortepianodagi akkordlar va pastki qismlar melodiyaning ritmik asosini kuchaytiradi.

Kuy romantik va lirik xarakterga ega bo‘lib, qisqacha obraz yoki voqiya tasvirlangan va shaxsiy his-tuyg‘ularni xazilomus tarzda ifodalaydi Kuyning xarakteri

Kuy minor tanoligida yozilgani bilan salist bilan eshtilganda majorniy eshtiladi bu esa quvnoq, jo'shqin va yorqin hissiyotlarni ifoda etadi Allegretto tempi unga o'ynoqi, zavqli ohang beradi. Tuzilishi va forma: Kuyning shakli xalq qo'shig'i formasida yozilgan. Gamafonik -garmonik fakturada bo'lib Bu shuni anglatadiki: Melodiya yuqori ovozda joylashgan va asosiy diqqat unga qaratiladi . Fortepiano qismi esa melodiyaning garmonik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, ya'ni akkordlar va bas notalar yordamida ohangni boyitadi. Bu faktura xalq musiqasi elementlarini jonli va aniq ifodalashga imkon beradi. Fortepiano partiyasi ikki qo'llab ijro etiladigan akkordlardan iborat. Dinamik belgilar (piano, forte) fakturani yanada hissiyotli va ifoda qiladi. Bu kuy gamafonik -garmonik faqturnada bo'lib bo'lib, ijroda qulaylikni va melodiyaning diqqat markazida bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, fortepiano partiyasi garmonik va ritmik jihatdan boy bo'lib, butun asarga chuqurroq musiqa ohangini beradi.



Asarning boshlanishida yorqin kayfiyat bag'ishlagan holda 4 taqiti kirishuv bo'ladi bu esa asarning qisqacha mazmun mohiyatni ko'rsatib o'tadi va 8 taqitdan keyin vaqalis bilan birgalikda ijro qilinadi 6/6 taqitdan 2 ta fraza va 1ta matif mavjud 2 taqit bog'lovchi vazifada keladi kvadratli bo'ladi bog'lovchi 2ta taqitdan keyin 10 taqit takrorlaniladi 5/5 taqitdan repriza sifatida yangraydi reprizadan 2 sezura mavjud bo'lib xar bir taqit 4/4dan bo'lib kvadrati har bir sezurada 1 dan matif bor



Asarning avj qismiga kelib qismi melodik jihatdan yuqori nuqtaga yetadi. Eng baland tovush mi tovushi hisoblaniladi Bu davrda melodiya odatda o'zining balandligi va kuchaygan ohanglar bilan ajralib turadi. Asar oxiri melodiya o'zgarmagan xolda Vaqalisning so'zlari esa o'zgargan holda yakunlaniladi